

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEVA UMIDA XOMIDOVNA**

**NOVERBAL MULOQOT VOSITALARINING GENDER TAHLILI (INGLIZ VA  
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of phylosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Raxmatullayeva Umida Xomidovna**

Noverbal muloqot vositalarining gender tahlili (ingliz va o'zbek tillari misolida) .....3

**Rakhmatullaeva Umida Xomidovna**

Gender analysis of nonverbal communication tools (on the example of English and Uzbek languages) .....25

**Рахматуллаева Умида Хомидовна**

Гендерный анализ невербальных средств коммуникации (на примере английского и узбекского языков).....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEVA UMIDA XOMIDOVNA**

**NOVERBAL MULOQOT VOSITALARINING GENDER TAHLILI (INGLIZ VA  
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2. PhD Fil/4687 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasini Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) hamda “Ziyo net” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatov Abdi Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sadullayeva Nilufar Agzamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abduazizova Durдона Abduzuhurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc03/30.12.2019. Fil.01.10 Ilmiy kengashning 2025 yil “5” dekabr soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Farobiy ko‘chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-21; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O‘zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, 3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (203 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “21” noyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil “21” noyabr dagi 40 raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.A.Siddiqova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**M.G.Rabiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filolologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, dotsent

**S.E.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi seminar raisi, filolologiya  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida yangi yoʻnalish – gender lingvistikasi jadal rivojlanmoqda, u jinslarning oʻzaro munosabatlari, erkak va ayol ijtimoiy jinslarga jamiyat munosabati muammolarini, shuningdek, erkak va ayollarning nutqiy xulq-atvorida aks etadigan ijtimoiy jins xususiyatlarini oʻrganadi. Gender – bu uch jihatdan: ijtimoiy belgilar, maskulin va feminin xulq-atvorini marosimlashtirishning anʼanaviy shakllari sifatidagi erkaklik hamda ayollikning madaniy holat-tarzlari, nutqiy muomala, gender jihatlari va u yoki bu jins tomonidan maʼqullanadigan aloqa vositalari, ularning ijtimoiy tafovutli qoʻllanilishida namoyon boʻladi. Oʻzbek va ingliz tillari misolida noverbal muloqotni gender aspektida tahlil qilish zarurati mazkur dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini belgilaydi, chunki gender jihatdan muloqotning noverbal vositalari olimlar tomonidan juda kam oʻrganilgan, genderning noverbal namoyon boʻlishini oʻrganish metodikasi ishlab chiqilmagan, oʻzbek tili sohiblari boʻlgan erkak va ayollarning noverbal xulq-atvori nazariy modeli yaratilmagan.

Dunyo tilshunosligida, xususan, oʻzbek tilshunosligida tillarni qiyosiy tadqiq etish masalasi juda muhimdir. Oʻzbekistonda tillarni qiyosiy-chogʻishtirma tadqiq etish borasida muvaffaqiyatli izlanishlar olib borilayotganligiga qaramasdan leksikani qiyosiy tadqiq etishda izchil izlanishlar talab etadigan muammolar borligini taʼkidlash lozim, jumladan, noverbal vositalar, yaʼni paralingvistik vositalarni tadqiq etish ham shular jumlasidandir. Turli tizimdagi tillarning noverbal qatlamini qiyosiy oʻrganish juda ham murakkab va dolzarbdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini davomli rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Taʼlim muassasalarida chet tillarini oʻqitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur faoliyatiga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganganlik darajasi.** Bir necha fanlar kesimida shakllangan gender lingvistikasi erkak va ayollar nutqiy xulq-atvoridagi ijtimoiy hamda madaniy o'ziga xos jihatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. L.C.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, D.Mid, T.Shibutan va boshqalarning ishlari gender tadqiqotlarining nazariy va metodologik asosi hisoblanadi. Noverbal muloqotning gender jihati quyidagi qoidalarga: 1) ifodali harakatlarning ijtimoiy holati haqidagi ramziy interaksionizmning o'rni; 2) voqelikni, shu jumladan, jinsni tushunadigan ramziy fundamentalizm holati til orqali bivosita ifodalanishi lozimligi; 3) kommunikativ vazifani amalga oshiruvchi ifodali harakatlarning ijtimoiy yo'nalishi haqidagi ifodali xatti-harakatlar psixologiyasining uslubiy tamoyili kabilarga asoslanadi.

Muloqotning noverbal vositalaridagi gender xususiyati M.M.Muqanov, S.S.Tatubayev, S.B.Beysembaeva, L.A.Kapanadze, G.V.Kolshanskiy, A.Piz, Y.I.Goroshko, G.E.Kreydlin, J.K.Ibrayevalar kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu qayd qilingan ishlarning barchasida lingvistikada gender tadqiqotiga nisbatan tizimli yondashuv mavjud emas, uning sotsiolingvistik mohiyati ochib berilmagan va tadqiqotning metodologik tamoyillari aniqlanmagan. Dissertatsiyamiz tadqiqoti ijtimoiy muloqotda erkak va ayollar noverbal xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini izlash va tahlil qilishga bag'ishlangan.

O'zbek tilshunosligida genderologiya masalalariga oid ilmiy ish qilgan olimlar: G.I.Ergasheva<sup>1</sup>, Z.I.Saliyeva<sup>2</sup>, X.Samig'ova<sup>3</sup>, A.A.Morozova<sup>4</sup>, N.Z.Nasrullayeva<sup>5</sup>, M.Qurbonova<sup>6</sup>, D.I.Ashurova<sup>7</sup>, M.I.Rasulova<sup>8</sup>, A.A.Abduazizov<sup>9</sup>, Sh.S.Safarov<sup>10</sup>, I.M.To'xtasinov<sup>11</sup>.

Noverbal vositalarni o'zbek olimlari M.M.Saidxonov<sup>12</sup>, A.Nurmonov<sup>13</sup>, D.A.Abduazizova<sup>14</sup> o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida yoritib berganlar.

---

<sup>1</sup> Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи: Фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2011.

<sup>2</sup> Салиева З. И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 25 с.

<sup>3</sup> Samig'ova X. Erkaklar va ayollar nutqida erkalash // Filologiya masalalari. – T.: O'DJTU, 2009. – № 2 (22). – B. 88-90.

<sup>4</sup> Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд: Сам ГИИЯ, 2011. – 5 с.

<sup>5</sup> Nasrullayeva N.Z. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasidagi gender konseptlarining shakillanishi: Filol. fan. d-ri.... avtoref. – T., 2018.

<sup>6</sup> Qurbonova M. Genderlingvistik tadqiq yangi paradigm sifatida // O'zbek tili va adabiyoti. 2-son. – T., 2014.

<sup>7</sup> Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Text Linguistics (ed Sh.S. Safarov). – Tashkent, 2016. – P. 280.

<sup>8</sup> Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.

<sup>9</sup> Абдуазизов А. А. Тилшуносликка кириш назарияси. – Т.: Sharq: 2010. – 262 б.

<sup>10</sup> Сафаров Ш.С., Кдырбаева Г.К. Концепт селовек в картине мире // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Тошкент, 2011. – Б. 34-37.

<sup>11</sup> Тухтасинов И. М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2011.

<sup>12</sup> Саидхонов М.М. Нoverбал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. Фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1977.

<sup>13</sup> Nurmonov A. Tasdiq va inkorning paralingvistik vositalar yordamida ifodalanishi. – T.: O'zbek tili va adabiyoti, 1979. – № 1. – B. 346.; Nurmonov A., Saidxonov M.M. Паралингвистические средства выражения утверждения и отрицания // Советская тюркология. – T., 1986. – № 5. – С. 69.

<sup>14</sup> Abduazizova D.A. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английской, узбекской и русской вербальной и невербальной коммуникации: Автореф. дисс. ... канд. филол.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va ingliz tilida noverbal muloqotini gender aspektida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

muloqotning noverbal vositalarini tasniflash muammosi bilan bog'liq yondashuvlarni tahlil qilib, ularning o'ziga xos jihatlarini gender jihatdan nazariy modelini yaratish;

ijtimoiy gender tushunchasini evolyutsiyasini kuzatish va noverbal semiotik masalalarini ifodalashning gender jihatidan tizimlashtirish;

noverbal vositalarni muloqot tizimidagi o'rnini belgilash, o'zbek va ingliz madaniyatidagi noverbal muloqotning gender xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek nutqiy muloqoti noverbal vositalarining gender xususiyatlarini aniqlash orqali psixo-fiziologik hamda ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yoritish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida muloqotning noverbal vositalarini nutqiy faoliyat va XIX-XX asr badiiy adabiyotlardan olingan misollar asosida gender aspektida tahlil qilish.

**Tadqiqot predmetini** erkak va ayollarning noverbal kommunikativ xulq-atvori hamda erkak va ayolga xos gender andozalarining noverbal-kommunikativ ifodalanishi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, leksik-semantik, kontekstual va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek nutqiy muloqoti noverbal vositalarini tasniflash orqali gender tahlili amalga oshirilib, ingliz va o'zbek milliy madaniyati va zamonaviy jamiyat madaniyatiga asoslangan gender ifodasining nazariy modeli ilmiy dalillangan;

ingliz va o'zbek madaniyatida noverbal xulq-atvorini kontekstual-diskursiv, diniy-kulturologik, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida adresatga axborot berish, adresat ongiga ta'sir qilish hamda ishontirish kabi asosiy omillar gender jihatdan yondashuv negizida shakillanganligi ilmiy asoslangan;

qiyoslanayotgan tillarda noverbal muloqot asosining ijtimoiy normalari (din, oilaviy munosabatlar, milliy-madaniy an'analar) funksiyalari gender nuqtai nazardan tahlil qilinib, madaniyatlararo noverbal kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish kabi ijtimoiy ahamiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o'zbek noverbal vositalari psixolingvistik xarakterdagi, ya'ni imo-ishoralarning konnotativ ma'nosi ularning ekspressivligi va emotsional ifodasi bilan bog'liq omillarni birlashtiradigan hamda pragmatik yo'nalishni amalga

oshiradigan vositalar, ya'ni tilning real qo'llanilishi, muloqotchilar orasidagi munosabat, nutqning maqsadi, ta'sir mexanizmi va nutqiy strategiyalarning noverbal vositalarda namoyon bo'lishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot noverbal muloqot vositalarining genderga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, jestlarda erkaklik va ayollikni ifodalashning gender semiotik vositalarini takomillashtirish hamda standartlashtirish bo'yicha ko'plab taklif va tavsiyalar taqdim etilgan. Tadqiqotda O'zbek tilshunosligida o'rganilmagan noverbal muloqotning gender jihatlari tadqiq etildi. Genderga asoslangan noverbal muloqot modellarini aniqlash orqali tadqiqot noverbalikani genderda ifodalanishini muvozanatlash yo'llarini tavsiya qilish mumkin, bu stereotiplardan qochishga yordam beradi va o'quv materiallarida inklyuzivlikni targ'ib qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilganligi, to'plangan materiallar tahlili asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgani, muammoga ingliz va o'zbek tillarining xususiy tabiatidan kelib chiqqan holda yondashilgani, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar, ratsional-tipologik, qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, nazariy qarashlar, shuningdek, xulosalarning amaliyotga tadbiiq etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotimiz madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariyaga asoslanadi. Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, verbal va noverbalikaning o'zaro ta'siri, muloqot jarayonida noverbalikaning o'rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

To'plangan materiallar va ularning tahlilidan til nazariyasi kurslarida, maxsus kurslarda: "Gender lingvistikasi", "Gender aspektidagi paralingvistika", "Lingvokulturologiya", "Gender kommunikatsiyasi", zamonaviy ingliz va o'zbek tillari bo'yicha umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika kurslari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Noverbal muloqot vositalarining (ingliz va o'zbek tillari misolida) gender jihatdan tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

jestlarni gender nuqtayi nazardan tahlil qilishga oid nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida 2020-2022-yillarda bajarilgan HHM Radiotexnika qo'shinlari o'quv-terminologik lug'ati "Erudit" shifrlı yopiq maqsadli innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi 2024-yil 16-Fevraldagi №10/373-son ma'lumotnomasi). Natijada noverbal muloqotning taktil, okulesik va kinesik vositalarining konnotativ ma'nolari tasnif qilingan;

tilning noverbal vositalari gender assimetriyasini (nomutonosibligini) ifodalanishini, turli semiotik vositalardan foydalanishni gender jihatdan namoyon bo'lishiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston xalqaro Islom

akademiyasida 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan “Al-Jome’ as-sahih” to‘plami hadislarining zamonaviy talqinini yaratish” nomli MU-FZ-201912073 amaliy loyiha doirasini bajarishda foydalanilgan. Ingliz va o‘zbek madaniyatida noverbal xulq-atvor tahlil qilinib, erkak va ayol noverbal xulq-atvorining gender jihatdan o‘ziga xosliklarini shakllantirishga yordam beruvchi ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar aniqlangan (O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasining 2023-yil 19-fevraldagi № 5-069-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur dissertatsiya loyiha doirasida chop etilgan dastur va qo‘llanmalarda muloqotning nokinesik vositalari milliy-madaniyat gender modeli o‘zbek jamiyatida erkak hamda ayollarning proksemik, prosodik xulq-atvorini dolzarblashtirish usullari orqali ijtimoiy-jinsiy muomalani ifodalash, xususiyatlarini ochib berishda alohida ahamiyatga molikdir;

noverbal muloqotni pragmatik, semiotik va gender aspektida tahlil etish orqali umummadaniy kompetentlik xususiyati sifatida o‘zida umummadaniy bilimdonlik, umummadaniy qadriyatlar tizimida gender xususiyatini aniqlash imkoniyati va madaniy etuklikni namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi omil ekanligini ko‘rsatib beruvchi noverbal vositalar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” dasturlarining ssenariysini tayyorlashda (2023-2024-yillarda) foydalanilgan va asoslab berilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 15-yanvardagi №04-36-69-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha noverbal kommunikativ kompetentlikning amaliy blogi ijtimoiy-psixologik, mantiqiy-kompozitsion, albatta, nutqiy kommunikativ malakalarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, yuqori impakt faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat. Umumiy xajmi 145 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismi tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ko‘rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalarini ochib beradi.

Dissertatsiyaning “**Genderning ijtimoiy-madaniy tuzilishini o‘rganishdagi**

**asosiy yondashuvlar**” deb nomlangan 1-bobning 1-faslida genderning ijtimoiy-madaniy tuzilishini o‘rganishdagi asosiy yondashuvlar, xorijiy va mahalliy gender tilshunosligida muloqotning noverbal vositalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, genderda feminizm va maskulinlik atamalari, gender tilshunosligida tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarning tahlillari va nazariyalari o‘rganilgan.

1968-yili psixolog R.Stoller ushbu termini “maskulinlik” (erkaklik) va “femininlik” (ayollik)ni “erkakka xos” hamda “ayolga xos” ijtimoiy-madaniy xususiyatlar sifatida farqlash uchun ishlatgan, R.Stoller ushbu termindan foydalanib, erkak va ayol jinsi haqida gapirish mumkinligini ta’kidlagan, shuningdek, u erkaklik va ayollik haqida gapirilganda ularning anatomiya yoki fiziologiya bilan bog‘liqligini nazarda tutmagan holda fikr yuritish mumkinligini aytadi. Uning fikricha, bu ikki voqelik (jins va gender) bir-biri bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmasligi mumkin, shu bilan birga, bir-biridan mustaqil ravishda belgilanishi ham mumkin<sup>15</sup>.

Demak, gender biologik ma’noda “jins” emas, xususan, N.Greydin, V.Myuller, K.Uxov, Dj.Kouts kabi ayrim mualliflar jins tushunchasiga fiziologik farqlarni belgilash uchun ishlatiladi degan an’anaviy nuqtayi nazar bilan qarab, uning asosida inson zoti ayol turidagi jonli predmet va obyektlar sifatida belgilanadi, ham erkak jinsi sifatida aniqlanadi deb hisoblaganlar. Jinsni ifodalash uchun maxsus “jins” so‘zi mavjud bo‘lib, biroq ba’zan “gender” so‘zi ham ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, M.Myullerning inglizcha-ruscha lug‘atida “gender” ikki ma’noga ega: 1) grammatik jins; 2) jinsni hazil ma’noda belgilash<sup>16</sup>. Shuning uchun I.Konning quyidagi fikri adolatli deb e’tirof etiladi: “...mening fikrimcha, genderni jins deb atash kerak emas. Bu terminologik chalkashlikni yuzaga keltiradi”<sup>17</sup>.

Genderning madaniy ramziy loyihasi erkak va ayol jinsini “erkaklik” (maskulinlik) hamda “ayollik” (femininlik) kategoriyalarida tushunishni nazarda tutadi. Genderning bunday tahlili jarayonida jins erkaklik (maskulinlik) yoki ayollik (femininlik) turlariga xos turli xususiyatlarni ijtimoiy ifodalash jarayonida ijtimoiy voqelikning shakllanishiga yordam beruvchi madaniy metaforaga aylanadi.

Tadqiqotimizda gender terminining qo‘llanishi terminologik adekvatlik prinsipiga ko‘ra tadqiq etiladi. Har ikki tilda gender – bir vaqtning o‘zida shaxsning ijtimoiy va madaniy shartlashgan erkaklik hamda ayollik xususiyatlarini o‘zlashtirish jarayoni va natijasini ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Birinchi bobning 2-fasli “*Genderning ijtimoiy-madaniy, lingvistik mohiyati va ijtimoiy gendershunoslik*”. O‘tgan asrning 60-yillardan boshlab esa genderni til bilan bog‘liq deb qayd qilingan ishlar yuzaga kela boshlaydi. A.V.Kirilina to‘g‘ri qayd qilganidek, “gender (ijtimoiy yoki ijtimoiy-madaniy jins) til kategoriyasi hisoblanmaydi, balki uning mazmunini til strukturalarini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin, bu esa jinsning madaniy qayta taqdim qilinishini o‘rganish

<sup>15</sup> Столлер Р. Пол, гендер и общество. – М., 1972. – С. 35-37.

<sup>16</sup> Мюллер В. Англо-русский словарь. – М., 1972. – С. 22.

<sup>17</sup> Кон И. Проблемы и перспективы развития гендерных исследований в бывшем СССР // Гендерные исследования, 2000. – С. 27-33.

uchun lingvistik kompetensiyaga nisbatan bo‘lgan talabni anglatadi”<sup>18</sup>.

Jinslarning ijtimoiy va psixofiziologik xususiyatlarini ularning nutqiy xatti-harakatlaridagi tilda aks etishi muammosi XX asrning 60-70-yillarida feministik tilshunoslikda o‘rganila boshlandi. R.Lakoffning “Ayollarning o‘rni va roli” ishi tilning feministik tanqidi asosi sanalib, unda til o‘zining **androtsentrikligi** (androtsentrizm – erkaklarni ayollarning ijtimoiy mavqeyini past baholashi va ularga nisbatan tanqidiy fikri) hamda dunyo tasviridagi ayollar obrazining noto‘g‘ri qiyofasi tufayli tanqidga uchradi<sup>19</sup>.

O‘zbek xalqi maqol va matallarida ayolning itoatkor mavqeyi, bog‘liqligi va uning ikkilamchiligi o‘zbek mentaliteti uchun xos bo‘lgan “ayol” tushunchasi: *Kelinning tili yo‘q, qaynonaning – imoni. Erdan – sadoqat, xotindan – itoat. Erdan – xato, xotindan – uzr. Xotindan – xato, erdan – jazo. Erda bo‘lsa yo‘rg‘alaydi xotin, erda bo‘lmasa nima qiladi xotin. O‘g‘il farzand ko‘rish qadriyat darajasida ekanligi: qiz tuqqanga muz tug‘ar, o‘g‘il tuqqanga kun tug‘ar. Erkaklar ayollarni tanlab uylanishi imkoniyati ustunligi: xotinni tanlab ol, gulni hidlab. Tandir olsang, qoqib ol, xotin olsang, boqib ol.*

Tilning feministik tanqidi dunyo tasviridagi ayollarning e‘tiborga olinmasligini ta’kidlaydi va tilda gender omilini neytrallashtirishni talab qiladi, bu, o‘z navbatida, bir shaxsning jinsi yoki ayol jinsiy majburiy ramziy belgilarini bartaraf qilishda, til me‘yorlarini qayta anglash va o‘zgartirish kabilarda o‘z aksini topadi.

Gender asimmetriyasi erkak elementining tilda ustuvorligini va ayollarning ikkilamchi rolini nazarda tutadi. Shunday qilib, ushbu yo‘nalish tilda qayd qilingan patriarxal stereotiplar (andozalar) dunyoning ma‘lum bir ifodasini uning so‘zlovchilariga yuklashi, unda ayollar, asosan, salbiy xislatlarni namoyon etib, ikkinchi darajali o‘rinlarni egallashlari borasidagi tasdiq ilgari suriladi<sup>20</sup>. Tilshunoslikning ko‘plab fanlar singari bilimlarni insonparvarlashtirishga va antropotsentrik omillarga murojaat qilishga intilishi tilda gendershunoslikning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Birinchi bobning 3-fasli “Zamonaviy tilshunoslikda muloqotning noverbal komponentlari gender tahlili” deb nomlanadi. Muloqotning verbal va noverbal muloqot vositalari nuqtayi nazaridan gender tadqiqoti holatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ishlarning ko‘pchiligi gender bo‘yicha tadqiqot olib borishda izchillikning mavjud emasligi bilan farqlanadi, ya’ni “aniq ifodalangan metodologik dominantning (ustuvorlikning)” yo‘qligi<sup>21</sup> va bunday tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan ilmiy yondashuvlarning ko‘rsatilmaganligidan dalolat beradi. Og‘zaki xatti-harakatning erkak va ayollarga xos variantlarini o‘rganishda ularning muloqotidagi o‘ziga xos xususiyatlar, tabaqalanishidagi o‘zgarishlar inobatga olinmagan holda faqat kommunikativ, leksik, morfologik va sintaktik jihatlari aniqlanadi (lingvistik genderologiyada erkak hamda ayollar verbal va noverbal

<sup>18</sup> Кирилина А.В. О применении понятия “гендер” в русскоязычном лингвистическом описании // Филологические науки, 2000. – С. 133.

<sup>19</sup> Лакофф Р. Место и роль женщины // Ведение в гендерные исследования. Ч. 2: Хрестоматия. – Харьков, 2001. – С. 991.

<sup>20</sup> Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – С. 29.

<sup>21</sup> Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – С. 24.

xatti-harakatlari bilan bog‘liq mavjud andozali tasavvurlar borasidagi mavqe, o‘rni, motivatsiya, ko‘rsatma, me‘yorlarni ifodalovchi, erkak va ayolning noverbal kommunikativ xatti-harakatini gender jihatidan tavsiflovchi ishlar deyarli mavjud emas).

Xorijiy va mahalliy tilshunoslikdagi mavjud genderning o‘id tadqiqotlarning kamchiliklarini hisobga olgan holda, avvalo, erkak va ayollarning noverbal xulq-atvorini gender jihatidan tadqiq etishning metodologik dominantlarini aniqlashga harakat qilamiz.

1-bobning 4-fasli “*Muloqotning noverbal vositalarini gender jihatidan tadqiq qilishning ontologik, metodologik va gnoseologik xususiyatlari*” deb nomlanadi. **Gender tilshunosligi metodologiyasi** hozircha shakllanish jarayonidadir. Gender lingvistikasining ilk ikki uslubiy paradigmasi jamiyatshunoslik umumnazariy tamoyillariga asoslanadi, shuningdek, gender tilshunosligining uchinchi tarkibiy qismi sifatida gender tahlili metodi esa turli ta’limotlar doirasida, ya’ni L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning ramziy interaksionizm, ramziy fundamentalizm, struktur funksionalizm, umumlashtirishga o‘id ta’limot borasidagi qarashlari kabilarda shakllanadi.

**Genderning gnoseologik (borliqni bilish) jihati**, shuningdek, bir qator muammoli masalalarni o‘z ichiga oladi, masalan: 1) jins, noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) vositalar va ijtimoiy tuzilmalarning o‘zaro aloqadorligi shular jumlasidandir.

A.D.Shveyser ijtimoiy guruhlarini, muayyan nutq jamoasi bilan bog‘liq tabaqalarni qatlamlar sifatida belgilaydi. Ushbu qatlam va tabaqalarning barchasi bilvosita til bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ijtimoiy tabaqalanishda vertikal va gorizontal farqlarning nisbatini, shuningdek, funksional elementlarni ular bilan muvofiqlashtirishni inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi: “Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri strukturadagi til sinflarining unda aks etishi borasidagi masalaga borib taqalmaydi, balki undan hosil bo‘lgan barcha elementlarning – ijtimoiy guruhlar, qatlam, kasb-hunar, madaniy va boshlang‘ich majmualarga (kichik guruhlar) qadar bo‘lgan boshqa guruhlarining vositachilik rolini e’tiborga olib o‘rganish lozim. Gorizontal farqlanish elementlari ham – ijtimoiy hayotning turli sohalari, shuningdek, ijtimoiy boshqaruv darajalari iyerarxiyasi bilan vertikal farqlanish elementlari ham hisobga olinishi shart”<sup>22</sup>.

Ijtimoiy tabaqalanishdan tashqari jamiyatda genderning jins jihatidan farqi ham kuzatiladi. Jinsga ko‘ra gender tabaqalanishi – jamiyatning gender ijtimoiylashuvi natijasi sanalib, o‘g‘il va qizlarning tug‘ilishlaridan boshlab ularning kiyim-kechaklari, o‘yinchoqlari, soch turmaklariga qadar o‘zaro farqli tarbiyasida namoyon bo‘ladi. Bolalar 2 yoshidan boshlab o‘z jinslaridan xabardor bo‘ladilar, 5-6 yoshda esa o‘zlarining boshqalardan farqlarini anglaydilar. Ta’lim muassasalari (maktab, oliy ta’lim muassasasi) dasturlarida ham farqlar (uy-ro‘zg‘or ishlari, harbiy fan, chilangarlik ishlari) mavjud. Jamiyatda erkak va ayolga xos xususiyatlar asosida ta’lim-tarbiya qoidalari ajralib turadi.

### **Erkak va ayol andozalari**

---

<sup>22</sup> Швейцер А.Д. Социальная дифференциация языка // *Онтология языка как общественного явления*. – М., 1995. – С. 121.

<b>Erkakka xoslik</b>	<b>Ayolga xoslik</b>
Boquvchi vazifasini bajaradi, hokimiyatga, yetakchilikka intiladi; kuchli, sport bilan shug‘ullanishga moyil; faol; mustaqil, erkin, mantiqqa asoslangan, maqsadga muvofiq, xolis (obyektiv), rivojlangan intellektga ega, hissiyotga berilmaslik, qo‘pol, tashqi ko‘rinishi uchun qayg‘urmaydi va qarilikdan cho‘chimaydi; jinsiy hayot tajribasiga ega	Oilaga (xonadonni asrashga) sadoqatini namoyon qiladi; ko‘ngilchan, yordamga tayyor, kuchsiz, sport bilan shug‘ullanishga qiziqishi yo‘q, jur‘atsiz, tortinchoq, tobe, taqiqqa muhtoj, yengiltabiat, noizchil, nozik sezgi egasi, hissiyotga beriluvchan, muloyim, tashqi ko‘rinishi ustida qayg‘uradi va qarilikdan cho‘chiydi; himmatli

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillarida noverbal muloqotning kommunikativ xarakteri va ularning funksiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi *“Ingliz va o‘zbek tillarida noverbal muloqotning gender va milliy madaniyatini aks ettirish tamoyilari”*, *“Ingliz va o‘zbek tillarida noverbal semiotik sistemalar va ularning tasniflari”*, *“Ingliz va o‘zbek tillarida kinetik kommunikativ muloqotning gender tahlili”*, *“Ingliz va o‘zbek tillarida proksemikaning gender tahlili”* deb nomlangan fasllardan iborat.

Noverbal vositalar biologik va ijtimoiy manbaga ega. Biologik manbaning kelib chiqishi tug‘ma xususiyat bilan bog‘liq. Bu yerda ba’zi kinetik xususiyatlar reaksiya hosil qilishi uchun signal sifatida xizmat qiladi. Noverbal muloqot vositalari biologik tabiatining birinchi isboti, insonlar his-tuyg‘ularini ifodalashidagida yuz ifodalari, pozalar, imo-ishoralar insonlarda tug‘ma bo‘lib, ma’lumot yuborish va olish uchun signal bo‘lib xizmat qiladi. Noverbal muloqot vositalari biologik tabiatining yana bir isboti, masalan, suhbatdosh muloqot davomida yuzining qizarishini nazorat qila olmaydi va bu jarayon tabiiy tarzda yuz beradi. Bunday semiotik hodisalar majburiy harakat belgilari deb ataladi.

Imo-ishoralar yordamida indikativ ko‘rsatkichlar amalga oshiriladi. Ta’rifiy ma’nolar pantomima va imo-ishoralar orqali ham etkazilishi mumkin. Bundan tashqari, modal ma’nolar (ma’qullash, kelishuv, qat’iyatlilik) imo-ishoralar va yuz ifodalariga ham ta’sir qilishi mumkin<sup>23</sup>. Kommunikativ belgilar juda ko‘p funksiyalarni bajaradi, axborot uzatish, ekspressivlik va pragmatik, eng asosiy funksiyasi esa muloqotdir. Semiotik vositalarning kommunikativ funksiyasi muloqotchiga xabar yuborish, o‘z rozichiligini bildirish istagida bo‘lganida namoyon bo‘ladi. Noverbal muloqotda muloqotchi hech narsani bilmaslik haqidagi xabarni juda oddiy imo-ishora bilan tushuntira oladi: *“Nonni ham o‘zingizga o‘xshab chiroyli qilar ekansiz-a! – dedi. Hulkar qoshini chimirib: Oqlik kerak bo‘lsa chodirdan olib keta qoling, – dedi. Qatiq ko‘k kastyulkada. – Qani deb yelka qisdi. – O‘zingiz olib bersangiz, men topolmayapman. Hulkar qip-qizil nonlarni o‘rab chodirga olib kirdi”* (Primqul Qodirov. Qora ko‘zlar. – B. 62).

Ekspressiv funksiya turli his-tuyg‘ularni va emotsiyalarni yuz ifodalari, nigohlar, turli xil imo-ishoralar va o‘qrayib tikilish yordamida namoyish etganda ifodalaniladi.

<sup>23</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – М.: Наука, 1980. – С. 70.

*“Devoni xosning marmar ayvonida o‘tirgan Bobur Tohirni zo‘rg‘a tanidi. Tohirning soch-soqoli oqarib ketgan. Yuzidagi chandiقدan tashqari, engagi aralash bo‘yniga go‘yo bir katta yamoq tushgan. – Xayriyat tuzalib ketibsiz, – deb Bobur uning ko‘nglini ko‘taradigan gap izladi. Tohirning o‘ng qo‘li zaif, bo‘yni ham durust qayrilmaydigan bo‘lib qolgan, yon-veriga qaramoqchi bo‘lsa, butun gavdasini burib qarar edi.* (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – B. 80)

*Bobur so‘ngi yillarda ko‘p kasal bo‘lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi. Xondamir uning suyagi bo‘rtib qolgan ozg‘in yuziga, ko‘z atroflari va peshonasidagi qavat-qavat ajinlarga, uyqusizlikdan ichiga botib ketgan qovoqlariga qarab, ich-ichidan unga kuyunar edi”.* (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – B. 142)

Ingliz va o‘zbek madaniyatida muloqot jarayonida ishlatiladigan noverbal vositalarga belgi yuborishda qatnashadigan barcha kinesik belgilar: tana harakatlari, yuz ifodalari-mimika, poza kiradi.

Turli xil qarashlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, insonning noverbal xatti-harakatini aks ettiruvchi jestlarni tahlil qilish jarayonida ikki: tor (J.Treyger, G.E.Kreydlin, T.M.Nikolayeva) nuqtayi nazar va keng (G.V.Kolshanskiy, V.A.Labunskaya, Z.Z.Chanisheva, I.N.Gorelov, V.P.Koneskaya va boshqalar) nuqtayi nazarga alohida ajratilgan. Noverbal muloqot vositalarining yagona tasnifi hali mavjud emas, shu sababdan bu sohada tasniflash ustida ishlash juda dolzarb va muhimdir. Noverbal muloqot vositasining eng samarali tasnifi V.A.Labunskaya tomonidan taklif etilgan.

“Noverbal semiotika” fani G.E.Kreydlinning fikriga ko‘ra, hali yosh, endigina rivojlanib kelayotgan fan. “Insonlar nutqsiz muloqotga kiradigan, noverbal muloqot fanini men noverbal semiotika deb nomlashni taklif qilaman. Noverbal semiotika ilmiy intizom sifatida hali ham kashf etilmoqda, bu sohaning tarkibiga kiruvchi ma‘lum fanlar yoki quyi tizimlar har xil darajada o‘rganilgan va ko‘p hollarda boshqasi bilan umuman bog‘liq emas”<sup>24</sup>. G.E.Kreydlin taklif qilgan noverbalikani aks ettirish tizimi tasniflari yanada to‘liqroq. Tadqiqotchi noverbal semiotik quyi tizimlarga **prosodika** (ovoz va ohang), **kinesika**, **okulesika**, **gaptika**, **gastika**, **olfaktorika**, **xronologiya** va **proksemika** noverbal vositalarni nazarda tutadi.

Bizning tahlilimiz mavzusi o‘zbek tilida noverbal semiotik tizimining gender xarakteristikasi bo‘lganligi sabab uchta asosiy parametrga e‘tibor qaratamiz. Ular: funkcionallik, madaniy belgilarning tabiati va jins. San‘at sohasida ishlatiladigan jestlar ham tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan. Ana shunday tadqiqotlarning biri S.S.Tatubayevning monografiyasidir. Muallif turli jest va mimikalarni milliylikdan kelib chiqib xarakterlagan, ammo gender nuqtayi nazardan tahlil qilgan jestlarni qisman bergan<sup>25</sup>. S.B.Beysembayeva “Noverbal muloqotning tarkibiy qismlari” dissertatsiyasida noverbal muloqot vositalarini tahlil qilgan, ularni badiiy adabiyotlarda ishlatilishi tasvirlangan, ammo uni gender

<sup>24</sup> Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – С. 8.

<sup>25</sup> Татубаев С.С. Жесты как компонент искусства. – Алма-Ата: Казахстан, 1979.

nuqtayi nazardan ko‘rib chiqmagan<sup>26</sup>. Ayni vaqtda imo-ishoralar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida erkak va ayol mintalitetdan kelib chiqib o‘zini tutishiga xos bo‘lgan, shuningdek, ularning ijtimoiy roliga, ijtimoiy mavqeiga (erkak-ayol, katta-kichik) yoki muloqot qilayotgan odamiga qarab (kelini, kuyovi, hamkasbi) shu noverbalikaga murojaat qilishadi. Avvalambor, o‘zbek jamiyatidagi insonlarning egallab turgan pozitsiyalari: yoshi oiladagi iyerarxik mavqeyi, “keksa-yosh”, “qaynona-kelin”, “er-xotin”, “qayin singil” yoki “qayin uka” ijtimoiy munosabatlarida yoki yosh iyerarxiyasiga masofaning o‘lchoviga qarab amalga oshiriladi.

*“Bir mahal otin xola oq sholro‘mol yopingan atlas ko‘ylagi ustidan oldiga uqa tutilgan nimcha kiygan kelinchakni etaklab ostonaga olib chiqdi. Parda orqasidan kelinning yuzi yaxshi ko‘rinmas edi. Otin xola bir tomoq qirib oldi-da, ovozi boricha baqirdi. Assalomu alaykum kelin salo-o-o-m! Kelinchak ohista bosh egdi. Hovlidagilar chekka-chekkadan ma‘qullab javob berishdi: Baraka topsin! Rahmat! Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin. Otin xola yana bir marta tomoq qirib, ovozini rostlab oldi-da, boyagidan ham balandroq xayqirdi. Assalomu alaykum kelin salo-o-o-m:*

***Karmonni katta ochgan***

***Ayamay pulni sochgan,***

***Qorinlari qopday,***

***Mo‘yovlari shopday,***

***Qaynotasiga salo-o-o-m!”*** (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 2005).

Oiladagi “katta-kichik” iyerarxik ijtimoiy munosabatlarni va pozitsiyalarni ko‘rsatish maqsadida o‘spirinlar kattalarga hurmat belgisini ko‘rsatishadi. *Nima qilding? – dedi kampir o‘g‘lining salomiga alik olmay. – Nima ish qilib qo‘yding?! – Nima qilibman, oyi? – dedi bola ko‘zlarini pիրpiratib* (S.Ahmad. Ufq. – B. 13).

Iyerarxik ijtimoiy munosabatlarda keksalarni hurmat qilish ishorasi keksa hurmatli erkaklarga yoshlar salom berib, qo‘llarini cho‘zishlari ham hurmat, itoatkorlik ma‘nosini ifodalaydi: *Azizxon dovdirab qoldi. Shoshib ikki qo‘lini salomlashish uchun baravar cho‘zdi* (S.Ahmad. Ufq. – B. 102).

Bunday hollarda kichiklar o‘zidan yoshi ulug‘larga yoki keksa insonlarga o‘z hurmatini ifoda etadigan jestlardan foydalanishadi.

*“Azizxon indamay boshini egdi. Past ovoz bilan dedi: – Gunohimdan o‘ting. Bir qoshiq qonimdan o‘ting, ota! O‘sha siz aytgan bola menman”* (S.Ahmad. Ufq. – B. 59).

*Azizxon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, uzr so‘rab borolmasligini aytdi* (S.Ahmad. Ufq. – B. 66).

O‘zining ayolga nisbatan vakolatlarini ko‘rsatish va oiladagi mavqeyini namoyish etish uchun erkak “xo‘jayinlik” ishorasidan foydalanadi hamda turmush o‘rtog‘iga qo‘li bilan ishora qilib biror ishni uqtiradi.

Erkaklar va ayollarning noverbal xatti-harakatlari turli xil his-tuyg‘ularini ifoda etishda nomutonosi bo‘lib, gender jihatdan farq qiladi.

---

<sup>26</sup> Бейсембаева С.Б. Невербальные компоненты коммуникации в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алматы, 2002. – С. 27.

Noverbal muloqotda kosmosni madaniy tashkillashtirish muhim rol o'ynaydi. A.I.Galichevning fikriga ko'ra, "Proksemika muloqot xususiyatiga mos keladigan fizik parametrlarga ega bo'lgan kosmik birliklar sifatida qaraladi, ular muloqotchilar o'zlarini kommunikativ harakatining o'ziga xos ishchi fazoviy hajmi sifatida saqlaydilar"<sup>27</sup>.

Joylashuv masofasi va o'rinining muhim jihati; tashkil etish, bosqin qilish, mudofaa kabi hududning mavjudligi. E.Xoll kommunikativ masofani to'rt turga ajratdi: 1) intim darajadagi masofa (45-120 sm); 2) shaxsiy darajadagi masofa (45-120 sm); 3) rasmiy darajadagi masofa (120-400 sm); 4) jamoat muloqot masofasi (400-750 sm) (121, 163). Intim darajadagi muloqot – bu yaqin insonlari, qarindosh va do'stlari o'rtasidagi muloqot darajasi<sup>28</sup>. Shaxsiy darajadagi masofa qanchalik suhbatdoshlar bir-birlarini yaqindan, yaxshi bilishlariga bog'liq. Shunga asosan shaxsiy masofa muloqot darajasini ikki turga bo'lish mumkin: 1) cheklanmagan shaxsiy muloqot; 2) ish (biznes) yuzasidan bog'liq muloqot. Siz va boshqa insonlar o'rtasida masofaning o'zgarishi so'zlar almashinuvi kabi muloqot tajribasining bir qismidir.

Oyoqni chalkashtirib o'tirish Amerikalik erkaklar uchun tipik hisoblanadi<sup>29</sup>. O'zbek madaniyatida esa bu ko'rinish juda xunuk hisoblanib, erkaklar oyoqlarini chalkashtirib o'tirmaydilar.

**Ish yuzasidagi muloqot masofasi** rasmiy uchrashuvlarda, suhbatlarda, majlislarda foydalanilib, norma va tartib-qoidaga amal qilinadi. Mazkur muloqot masofasida suhbatdoshlar ko'proq stol atrofida joylashadilar. Bunday masofada muloqot rahbar va ularning xodimlari o'rtasida bo'ladi.

**Jamoat masofa darajasiga** auditoriyada, turli konferensiyalar o'tkazishda, simpoziumlarda, majlislarda amal qilinadi. Bunda muloqotchilarning yuqori (ustun) o'rindagilari bir taraf, ma'ruzachi bir tarafda joylashishadi.

Muloqot paytida inglizlar, qoida tariqasida, suhbatdoshlaridan bir yoki ikki metr uzoqlikda turadi (jinsidan qat'i nazar), agar ularning suhbatdoshi yaqinroq qadam tashlab kelsa, ular shaxsiy makonga tajovuz deb hisoblaydilar va bu holat ularni juda asabiylashtiradi hamda tajovuzkor xatti-harakatlar yoki jinsiy zo'ravonlik tomon qadam sifatida qabul qilishadi<sup>30</sup>.

**Proksemik muloqot.** Ayollar bilan taqqoslanganda erkaklar suhbatdosh sheriklari bilan o'zaro shaxsiy maydoni kattaroq masofada ( $r=.27$ ). Hech qanday ajablanishsiz, maksimal uzunlikdagi o'zaro shaxsiy masofa ayol va ayol, qarama qarshi jinsga nisbatan erkak va erkak masofasi bo'lib chiqdi. Bunday ko'rsatkich madaniyatlararo taqqoslaganimizda AQSHda ham va Buyuk Britaniyada ham kuzatildi<sup>31</sup>. Kuzatuvlarimizdan ma'lumki, insonlar erkaklar bilan muloqotga kirayotganlarida ayollarga nisbatan uzoqroq masofa olib gaplashadilar. Bu

<sup>27</sup> Галичев Н.В. Кинесический и проксемический компоненты речевого общения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МВИ, 1987. – С. 8.

<sup>28</sup> Holl E.T. The Dimension. – New York: Anchon, 1969. – P. 163.

<sup>29</sup> Cooper R. and Cooper N., Culture Shock: Thailand. – Portland, OR: Graphic Arts Center, 1994. – P. 22-23.

<sup>30</sup> Виссон Л. Русские проблемы в английской речи. Слова и фразы в контексте двух культур. – М.: П.Валент, 2003. – С. 19.

<sup>31</sup> Ozdemir A. Shopping malls: Interpersonal distance under changing conditions across cultures // Field Methods, 2008. – № 20. – P. 226-248 // <http://dx.doi.org.10/1177/1525822X08316605>.

ko‘rsatkich o‘smir, balog‘at yoshidagilar, o‘rta yoshlilar va keksa yoshdagi ishtirokchilar uchun ham taalluqli ( $r=.25$ ).

L.Brosnaxanning “Rus va ingliz tillarida noverbal muloqot” kitobida proksemik muloqot haqida aniq ma’lumotlar berib o‘tilgan. Tadqiqotchi muloqotchilar orasidagi masofani o‘lchab, aniqlagan.

## 2.1-jadval.

### Ingliz muloqotida o‘zaro masofa

Masofa turi	Ingliz muloqotchilar
Intim	10-45 sm
Shaxsiy	45-120 sm
Ijtimoiy	1-4 m
ommaviy	3.5 m

## 2.3-jadval.

### O‘zbek muloqotida o‘zaro masofa

Masofa turi	O‘zbek muloqotchilari
Ishqiy	40-45 sm
Shaxsiy	Ayol – ayol – 40-50 sm; erkak – erkak – 65-75, erkak – ayol – 75sm-1m.
Ijtimoiy	65-70

Inglizlar bir-birlari bilan uzoqroq masofada turib suhbatlashadilar. O‘zbek madaniyatida esa erkak va ayol orasidagi masofa uzoqroq, ayollarniki esa o‘zaro yaqin holatda muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida, jumladan, madaniyatlararo muloqotda masofani saqlash ingliz mentaliteti va turmush tarzini aks ettiradi. Ingliz tilida “privacy” leksemasi borligi bejiz emas, qonun bilan himoyalangan shaxsiy makon huquqini, shaxsiy daxlsizlik huquqini anglatadi. “Privacy” bu – inglizlarning milliy-madaniy shartli lingvomadaniy tarkibiy qismi sanaladi.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillarida noverbal muloqotning gender stereotiplari tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobi “*O‘zbek va ingliz tillarida emotsional gender stereotiplari*”, “*Ingliz va o‘zbek tillarida mimikaning gender tahlili*”, “*Noverbal muloqotda ayol va erkakning ko‘z qarash hamda nigohidagi farqlar*”, “*Ingliz va o‘zbek tillarida poza-noverbal muloqotda gender tarkibiy qismlari*” kabi fasllardan tashkil topgan.

Gender stereotiplar o‘zbek va ingliz noverbal muloqoti doirasida erkak hamda ayol shaxsiga oid tasavvurlarining madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini namoyon qiladi. Ushbu stereotiplar jismoniy, fiziologik, ruhiy intellektual va shaxsiy xususiyatlar bilan farqlanadi.

Noverbal vositalarning gender tadqiqi jamiyatning erkak va ayollarga munosabatini belgilovchi madaniy hamda ijtimoiy omillarni ajratishga imkon beradi. Erkak va ayollarga xos noverbal muloqotda yosh, tashqi qiyofa, jismoniy holat, faoliyat, intellekt kabi tushunchalar muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

**1. “Qayg‘u” gender stereotipi.** Yaqin qarindoshlarining o‘limi uchun motam tutayotgan ayollar **qo‘llar kaftini tizzaga yoyib, oyoqlarini chap yoki o‘nga qayirib, yon tarafga burib o‘tirishadilar.** Ular, shuningdek, **ikki kaftlarini bir-biriga ustun qo‘yib ham o‘tirishlari** mumkin. Erkaklar esa turgan

holatda qo‘llarini qovushtirib, o‘tirgan holatda esa kaftlarini tizzalariga qo‘yib boshlarini quyi solib o‘tirishadi. Erkaklarning qayg‘uni ifodalovchi jestlari – ko‘ksiga mushtlash, tizzalariga qo‘lini urib dod solishlari bo‘lsa, ayollar, asosan, yuzini kafti bilan to‘sib xo‘ngrashi va og‘ir holatlarda sochlarini yulib dod solishlaridir. Lab burish, qosh chimirish imo-ishoralari, odatda, yengilroq vaziyatlarda ishlatiladi.

O‘zbek ayollari chuqur qayg‘uda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishadi, xatto yuzlarini timdalab, tirnab tashlashadi. – *Hamma jimjit bo‘lib qoldi. Marg‘uba yuzini timdalab, og‘zini katta ochgancha oyoq uzra turib hushidan ketdi* (A.Qahhor. Anor. – B. 31).

*The hand on her arm tightened until it pinched and the wrinkled lids over the ellow eyes blinked* (M.Mitchell. *Gone with the Wind*. – P. 303). **Ingliz ayollari** esa qayg‘uda alamdan sherigining qo‘llarini siqib, alamdan ingrash holatlari uchraydi.

**2. “G‘azab” gender stereotipi.** Erkaklarning tabiatidagi tajovuzkorlik, qiziqqonlik holati ayollardan ajralib turadi va bu holatni ochiq namoyish etadilar. A.Pizning fikriga ko‘ra, g‘azablanishni ifodalovchi jest inson qo‘llarini beliga qo‘yib yoki qo‘lini biqiniga qo‘yib turishidir, bu holatni “tajovuzkorlikka tayyorlik” jesti deb ham ataladi. Piz bu jestni erkaklar aynan ayollarning yonida tajovuzkor va undan ustun bo‘lgan kuchini ko‘rsatish uchun foydalanishadi, deb hisoblaydi. A.Piz erkaklarning bu holatini go‘yo qushlar jang oldidan qanotlarini yozib, viqor bilan o‘zlarini kuchli qilib ko‘rsatishga urinishlariga taqqoslaydi. Erkaklar ham xuddi shu maqsadda ushbu jestdan foydalanishadi<sup>32</sup>. O‘zbek madaniyatida ham tajovuzkorlik, badjahllikni ifodalovchi turli jestlar mavjud bo‘lib, ular turli vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalaniladi. Ba’zi hollarda ayollar ham erkaklar ham jahllarini ko‘rsatayotganda deyarli bir xil jestlardan foydalanadilar. *“Boysunlik alamidani yomon-yomon o‘qraydi, yomon-yomon chaqchaydi. Ko‘zlarini olaytirdi. Burab-burab so‘kdi. Oxiri uloqni tashlab yubordi* (O‘.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*, 2005).

*He had forgotten completely about his conversation with her and was carrying on a monologue about the latest news from Furt Sumter, which he punctuated by hammering his fist on the table and waving his arms in the air* (M.Mitchell. *Gone with the Wind*. – P. 42).

**3. “Ajablanish” gender stereotipi.** Ajablanganda ayol va erkaklarning noverbal xatti-harakatlari bir xil emas hamda bir-biriga deyarli o‘xshamaydi. Chunki erkak va ayollar turli xil noverbal imo-ishoralardan foydalanadilar, masalan, erkaklar bunday vaziyatlarda iyagini, boshini qashisa, ayollar muloqotchiga tikilib qolishadi. *“Bo‘ldimi, gaping bitdimi? Endi mendan eshit! Kuyov taraf necha pullik qalin yuborgan bo‘lsa barini to‘laymiz – bu bir. Singlingni o‘zimiz kelin qilamiz – bu ikki. Endi ko‘ngling joyiga tushdimi. Akbarali nima deyishini bilmay iyagini qashidi”* (S.Ahmad. Ufq. – B. 82). *Scarlet tore of the rag and with trembling hands opened the leather folds. Milanie looked and her eyes dilated. Jumbled together was a mass of bills* (M.Mitchell. *Gone with the*

<sup>32</sup> Пиз А. Язык телодвижений. Как читать мысли других по их жестам. – Нижний Новгород: Ай-Кью, 1992. – С. 153.

Wind. – P. 297). **Ingliz ayollari** ham bunday vaziyatlarda ko‘zlarini katta-katta ochib, o‘qrayadilar. Ba‘zan tikilib, termulib turishadi. “*Now*” – *said grandma, peering into her face, “what’s wrong at Tara? What are you keeping back?*” (M.Mitchell. *Gone with the Wind*. – P. 302).

**4. “Kelishmovchilik” gender stereotipi.** Ayollar gap tortishib qolganlarida, asosan, ko‘rsatkich barmoqlarini niqtab gapirishsa, erkaklar kaftlarini shapaloq ko‘rinishda o‘qtalib, tortishadilar. Ayol va erkak qosh chimirish, qovoq solish orqali ham norozi ekanliklarini ko‘rsatadilar: – *Balki uch hissa oshirarmiz rais! – Kim? – yangi raisning qoshi chimirilib ketdi.* (O‘.Hoshimov. *Daftar hoshiyasidan bitiklar*. – B. 67). *Kim aytdi shu gapni? “Anavi nima? – Laylak! – dedi jerkib qovoq solib. – Laylak deyapman-ku, karmisiz! Shunday dedi-yu, tez-tez yurib ketdi”* (O‘.Hoshimov. *O‘tmishdan ertaklar*. – B. 3). “**Ikki tizzasiga shapatilab urib javrayotgan xotinining tepasiga kelgan Ummatali yupatishga tushdi**” (O‘.Hoshimov. *Ikki eshik orasi*. – B. 32). – Jeems gave up further pretense of not having overhead the conversation and **furrowed his black brow** (M.Mitchell. *Gone with the wind*. – P. 9). Aksariyat ingliz va o‘zbek ayollari kelishmovchilik holatlarida bilaklarini bir-biriga o‘tkazvolishadi. *She dropped her head upon her folded hands so that her mother could not see her face and her thoughts went sadly back to Ashley* (M.Mitchell. *Gone with the Wind*. – P. 47).

**5. “Quvonch” gender stereotipi.** Quvonchning ifoda etilishida ham gender nuqtayi nazardan o‘xshashlik va bir-xil ifoda etilmaydigan jestlar mavjud. Erkaklar, odatda, o‘z quvonchlarini kaftlarini bir-biriga ishqalab, qarsak chalib, taziga yoki soniga kaftlari bilan urib ifodalashsa, ayollar bunday holatlarda siporoq, vazmin holatda kamroq hissiyotga berilib kaftlari bilan qarsak chalish bilan kifoyalanishadi. “*Zum o‘tmay og‘ir, qalin papkani olib keldim. Oybek quvonib ketdi. Bag‘riga bosib, yelkamga qoqdi*” (S.Ahmad. *Yo‘qotganlarim va topganlarim*. – B. 19). “*Bashar ayvonda nimadir qilayotgan edi. G‘afur aka tepasiga kelib, nima qilyapsan, unaqamas bunaqa qil dedi. Bola dadasiga qaradida, G‘afur G‘ulom bo‘lsang o‘zingga bildingmi, yaramas, – dedi. G‘afur aka tizzalariga urib, qotib-qotib kuldi*” (S.Ahmad. *Yo‘qotganlarim va topganlarim*. – B. 79). Quvonchda esa aksariyat ingliz ayol va qizlar qo‘llarini birlashtirib, ko‘ksiga bosib turadilar. Biror sovg‘adan xursand bo‘lsa, uni bag‘irlariga bosib, sevinadilar. *She stood for a moment holding the letters to her breast, thinking longingly of Ashley. Her emotions toward him had not changed since the day when she first fell in love with him* (M.Mitchell. *Gone with the Wind*. – P. 144).

**6. “Uyat” gender stereotipi.** Erkaklar uyalganlarida yerga qarab, ayollar esa kaftlari bilan yonoqlarini ushlab, ba‘zan ular ham yerga qarab, boshini egib bir-birlariga o‘xshash va o‘xshamaydigan jestlar orqali ifoda etishadi. “*U ketarkan samovar so‘rilarni to‘ldirib o‘tirgan choyxo‘rlar undan ko‘z uzishmas, ana yiqilgan polvon deb shivirlashardi. Eshpolvon bu gaplarni eshitmasa ham sezardi. Shuning uchun boshini ko‘tarmay, hech qayoqqa qaramay qora daryo ko‘prigidan o‘tib borardi*” (S.Ahmad. *Yo‘qotganlarim va topganlarim*. – B. 83). – *Qiz uyalinqirab boshini egdi va yana yuziga qizillik yugurdi* (O‘.Umarbekov. *Odam bo‘lish qiyin*. – B. 23). – *Muhayyo qip-qizarib ketdi va ikkala yuzini ushladi. – Voy!.. Onangizga ko‘ylakni birovlar olib berarmidi?* (A.Qahhor. *Anor*. – B. 27).

## **O‘zbek ayollari hamda erkaklari o‘rtasidagi iyerarxik farqlar quyidagilar:**

1. O‘ziga bo‘lgan ishonch: erkaklar > ayollar<sup>1</sup>
2. Ko‘p huquqli: erkaklar > ayollar
3. Dominantlik: erkaklar > ayollar
4. Muzokaralar boshlash: erkaklar > ayollar
5. Gap, so‘z bermaslik ustunligi: erkaklar>ayollar
6. Stereotiplarga ishonish va qo‘rqish: ayollar> erkaklar
7. Aldov, firibgarlikka moyillik: ayollar> erkaklar

### **Ijtimoiy integratsiya:**

1. Yaqin, barqaror aloqa: ayollar > erkaklar
2. Axloqiy standartlar: ayollar > erkaklar
3. Axloqiy muhosada ruhiy g‘azablanishni ko‘rsatish: ayollar > erkaklar
4. Ruhiiy xarakter: ayollar > erkaklar
5. Hamdardlik: ayollar > erkaklar
6. Ilohiy ishonch: (taqdirga, xudoga bo‘lgan ishonch) ayollar > erkaklar
7. Demokratik liderlik: ayollar > erkaklar
8. Ijtimoiy idrok (noverbal signallardan foydalanishga) ayollar > erkaklar.

Bizning ilk yuz ifodalarimiz evolyutsiyasi bizning kayfiyatimiz va his-tuyg‘ularimiz bilan bog‘liq<sup>33</sup>. Darhaqiqat, inson kayfiyati ko‘tarinki vaqtida yuz ifodasi ochiq, istarali, ravshan va ko‘rkam ko‘rinadi, uning aksi bo‘lsa qoshlar chimirilgan, lab cho‘chchaygan, ko‘zlar olaygan kabi holatlarni kuzatish mumkin.

J.Fast “Britaniyaliklar o‘zlarining his-tuyg‘ularini dunyoga oshkor qilish o‘rniga, ularning yuz ifodalari qat’iy tartib-intizomga bo‘ysunadilar” deb ta’kidlaydi<sup>34</sup>.

**Nigoh va okulesik muloqot.** Kuzatuvlar balog‘at yoshidagi o‘smir yigitlar qiz suhbatdosh sherigiga nisbatan uzoqroq termulishlari kuzatildi ( $r=.32$  o‘smir qiz va yigitlar orasida). Aniqroq tahlillar umumiy ayollarning tikilish davomiyligi uzoqroq, erkaklarning nigoh chastotasi yuqori va qisqa ( $r=.38$ ). Erkak va ayol qarashlarida erkaklarni uzviy qarab turishlari noqulaylik tug‘dirishini, ko‘zlarini erga tikishlarini kuzatdik. Ammo o‘z suhbatdoshlarini tinglayotganlarida esa nigoh tez-tez suhbatdosh sheriklariga qadaladi ( $r=.8$ ). Nigohdagi yuqori gender tafovutlar erkak va erkaklarni, ayol va ayollarning muloqotini kuzatganimizda ayollarda kuzatildi ( $r=.42$ ). O‘zbek ayol va ayol muloqotchilari suhbatdoshlariga erkak bilan erkak juftliklar yoki ayol bilan erkak juftliklarga nisbatan uzviy hamda erkin qarashi aniqlandi ( $r=.38$ ).

**Tana oriyentatsiyasi** (yo‘nalishi): Ayol va ayol muloqotchilar hurmat belgisi sifatida erkaklarga qaraganda bir-birlariga tog‘ri yo‘nalishda muloqotga kirishadilar, ya’ni simmetrik holatda (Qarang Ilova 1, 1-rasm). Erkaklarga qaraganda bir-birlari tomon og‘ib, siljib, talpinib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishishlari kuzatildi ( $r=.22$ ) va muloqot masofasi boshqa jinsga nisbatan torroq ( $r=.15$  va  $r=.12$ ). Erkak va erkak tana yo‘nalishi esa assimetrikdir, nomutanosib

<sup>33</sup> <http://angol.uni-miskolc.hu/wp-content/media/2020/12/11305-communication-between-cultures-pdf-yeal-1.pdf>

<sup>34</sup> Fast J. Body language. – London: Pan, 1978. – P. 78.

( $r=.18$ ), (Qarang Ilova 1, 2-rasm). Ayol va erkak tana oriyentatsiyasi ham assimetrik holatda kuzatildi ( $r=.45$ ), (Qarang Ilova 1, 3-rasm).

**Poza.** Erkaklar odatda qo'l va oyoqlari assimetrik holatdagi holi hamda erkin pozadan foydalanishadi, ya'ni oyoq-qo'llar tanadan uzoqda ( $r=.44$ ), (Qarang Ilova 1, 4-rasm). Ayollar esa, aksincha, oyoqlarini yopgan holatda, qo'llar esa tanaga yaqin tarzda qat'iy tartibda turadi. Shaharda metro stansiyalardagi kuzatuvlar erkaklar o'tirganda oyoqlarini ochib, qo'llari yonga yoyilgan holda ochiq pozadan, ayollar esa oyoqlarini juftlab, qo'llarini oyoqlari ustiga juftlab yopiq pozada o'tirishlarini kuzatdik ( $r=.48$ ), (Qarang Ilova 1, 5-rasm). Bundan tashqari, o'smirlar orasidagi poza ularning o'zlariga bo'lgan ishonch va suhbatdoshining ijtimoiy maqomiga uzviy bog'liqligi kuzatildi. Britaniyaliklarning tik turish va o'tirish uslubi har ikki jins tarafidan ham juda erkin. Masalan, erkaklar qo'llarini cho'ntaklariga solib turishlari, har ikki jinsni umurtqa pog'onasini egib o'tirishlari, ayollar bir oyoqlarini oldinga qo'yib turishlari, taqdimot qilayotganda stol chetida o'tirish kabilardir<sup>35</sup> (Qarang Ilova 1, 6,7,8-rasmlar).

**Kulgi:** Ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq tabassum qilishlari kuzatildi ( $r=.38$ ). Tabassum qilishda inson yoshi katta ahamiyatga ega, masalan, o'smir va balog'at yoshidagi yigit-qizlar orasida juda faol, o'rta yoshdan keyin (40-45) esa har ikki jins orasida ham kulish faolligi keskin pasayishini kuzatdik. Kuzatuvlar insonning eng faol kulgi davri qizlarning balog'at 15-17 yoshiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi ( $r=.30$ ). 60-65 yoshdagi keksalik davrida esa tabassum chastotasi keskin pasayadi ( $r=.5$ ). Ayollarning kulishga moyilligi tanish, yaqin sheriklari bilan suhbatlashayotganlarida, ijtimoiy mavzular (kiyim-kechak, taqinchoq, uy-ro'zg'or, farzandlar vohakazo) haqida gap borganida oshishi kuzatildi. Kulish holatining pasayishi esa teng ijtimoiy maqomdagi qarama-qarshi jins vakillarining ish-faoliyatida kuzatildi. O'zbek madaniyatida ayollarning kulish chastotasi erkaklarnikiga nisbatan sezilarli tafovut aniqlandi ( $r=.13$ ). Buyuk Britaniyada esa ayol va erkaklar orasidagi kulgi tafovuti unchalik ham katta emas ( $r=.7$ )<sup>36</sup>.

**Taktil aloqa:** taktil aloqa munosabatlarga qarab asosan ayol o'rtasidagi sheriklar orasida yuqori bo'lib, ayollarda o'zaro jismoniy teginib muloqotga kirishish chastotasi va davomiyligi yuqori. Erkaklarning esa o'zaro taktil aloqadan foydalanishlari juda past ko'rsatkichni ko'rsatdi. Ayollar yaqin insonlari bilan teginib muloqot qilishida o'zlarini qulay va xotirjam his qilishlari, begona ayollar bilan esa deyarli bunday aloqa uchramasligi kuzatildi. Bundan tashqari, muloqot vaqtida suhbatdosh o'zini-o'zi jismonan tegishdagi (burnini qashib, sochini o'ynab, qo'lini ushlab, bo'ynini ushlab) gender farqlar ayollar utunligini ko'rsatdi ( $r=.34$ ). Madaniyatlararo tadqiqotimizda ham ayol va erkaklarning o'z jinsiga nisbatan munosabatida AQSHda ayollar erkaklarga nisbatan ustun<sup>37</sup>.

**Noverbal ishoralardan samarali foydalanish:** Ayollarning jestlarni uzatish va ifodalash samaradorligi erkaklarning ko'rsatkichidan ustun. Umumiy kuzatuvlar ayollar expressiv ekanligini va ularning noverbal ishoralarini tushunish ham oson

<sup>35</sup> <https://www.usingenglish.com/articles/british-body-language.html>

<sup>36</sup> <http://dx.doi.org/10.1037/14669/-006> APA Handbook of Nonverbal communication, D.Matsumoto, H.C.Hwang and M.G.Frank (Editors-in Chief) Copyright 2016 by the American Psychological Association. All rights reserved.

<sup>37</sup> <http://dx.doi.org/10.1037/14669/-006> APA Handbook of Nonverbal communication, D.Matsumoto, H.C.Hwang and M.G.Frank (Editors-in Chief) Copyright 2016 by the American Psychological Association. All rights reserved.

ekanligini ko'rsatdi ( $r=.25$ ). Asosan, ikki jins orasidagi tafovut mimik ishoralarda kuzatildi (tabassum, qovoq uyish, qosh chimirish, ko'z suzish vohakazo). Bundan tashqari, ayollar orasidagi ijtimoiy kompetensiya ham noverbal vositalarning samarali ifodalay olishlari, muvafaqqiyatli ro'yobga chiqara olish qobiliyati bilan ham uzviy bog'liq. Ayollarning noverbal vositalardan expressiv foydalanish chastotasi va moyilligi qisman baland ekanligini kuzatdik, madaniy stereotiplarda, masalan, ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq emotsional kabi qarashlar mavjud. Ammo bu fikrga bizning munosabatimiz ham ijobiy, ham reaksiyon, bizning ekspektatsiyamizga to'liq mos kelmadi. Ya'ni empirik kuzatuv va dalillarimizda gender tafovutlar hissiyotni ifodalashda yuqori ekanligi tadqiqotimiz natijalariga mos kelmadi. Umumiy olganda, ayollar spontan ravishda emotsional tarzda harakat qilsalarda (yig'lash, baqirish), ammo ikki jins ham o'z hissiyotlarini deyarli bir xil darajada ifoda etadi. Psixologik jihatdan yondashsak, hissiyot qo'zg'atuvchi holatlarda erkaklarning psixologik javob va harakati ayollarnikiga qaraganda barqaror hamda kuchli ( $r=.34$ ).

Tana harakatlarida erkaklarning kinesik holati ayollarga qaraganda ancha notinch va bezovta ( $r=.40$ ). Ammo ayollar muloqot mobaynida boshini silkitib "hmm" deb suhbatdoshining fikrini tasdiqlab, o'z munosabatini ko'rsatib turadi. Bu kabi tasdiqlash ishorasi sherigini e'tibor bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shuningdek, ayollar suhbatda gapirayotganlarida erkaklarga nisbatan qo'l harakatlari va boshqa jestlardan faolroq foydalanishadilar ( $r=.30$ ).

### 3-jadval.

#### Noverbal muloqotning gender aspektida qiyosiy tahlili (Ishtirokchilar yoshi 35-45).

№	Qaydnoma savollari	Ishtirokchilar soni	Ko'rib chiqilayotgan savollarning xususiyatlari			
			Erkak va ayolning taktil muloqotdagi farqi			
		40	Erkak va ayolning taktil muloqotdagi farqi			
1	Eng yaqin do'stingiz bilan qanday salomlashasiz?		A) Assalomu alaykum	B) Qo'l berib	C) Quchoqlab	D) Yanoqdan o'pib
		Erkak (20)	2	12	6	-
		Ayol (20)	1	2	8	9
2	Gapirayotganingizda yuzingizni (bo'yin, soch, og'iz, burun, ko'zlar) ushlaysizmi?		A) Ha	B) Yo'q	C) E'tibor bermaganman	-
		Erkak (20)	5	11	4	
		Ayol (20)	16	-	4	
			Erkak va ayollarning kinesik muloqotdagi farqi			
3	Qo'l jestlaridan ko'proq ayollar foydalanishadimi yoki erkaklar?		A) Ayollar	B) Erkaklar	C) E'tibor bermaganman	-
		Erkak (20)	14	4	2	
		Ayol (20)	13	3	4	
4	Siz jestlarni, odatda, verbal aloqani mustahkamlash uchun ishlatasizmi?		A) Ha	B) Yo'q	C) Bilmadim	-
		Erkak (20)	6	12	2	
		Ayol (20)	11	3	6	

5	<b>Suhbat davomida boshingizni muntazam silkitib turasizmi?</b>		A) Ha	B) Yo‘q	C) E’tibor bermaganman	
		Erkak (20)	11	7	2	
		Ayol (20)	12	6	2	
<b>Nigoh va okulesik muloqot</b>						
6	<b>Ko‘z ishorasi muloqotda muhimmi?</b>		A) Ha	B) Yo‘q	C) E’tibor bermaganman	-
		Erkak (20)	15	4	1	
		Ayol (20)	15	3	2	
7	<b>Suhbatdoshingiz bilan gaplashayotganingiz da uning ko‘ziga qaraysizmi?</b>		A) Ha	B) Yo‘q	C) Bilmadim	-
		Erkak (20)	14	5	1	
		Ayol (20)	16	4	-	
<b>Erkak va ayollarning proksemik muloqotdagi farqi</b>						
8	<b>Muloqotda sizga qanday masofa afzal?</b>		A) Ishqy (45 smgacha)	B) Shaxsiy (45-120 sm)	C) Ijtimoiy (120sm-300 sm)	D) Jamoada (300 sm va undan yuqori)
		Erkak (20)	-	13	5	1
		Ayol (20)	-	5	13	2
9	<b>Kimning yonida o‘tirganingizda o‘zingizni qulay his qilaisiz?</b>		A)Erkakning	B)Ayolning	A)Ahamiyatsiz	-
		Erkak (20)	15	2	3	
		Ayol (20)	-	17	3	
10	<b>Kimning yoniga o‘tirishni xohlaysiz?</b>		A) Erkakning yoniga	B) Ayolning yoniga	C)Ahamiyatsiz	
		Erkak (20)	16	2	2	
		Ayol (20)	-	18	2	

Qiyosiy natijalar ikki jins tarafidan turli xil yondashuvlarni ko‘rsatmoqda. Aksariyat ayol dugonalar salomlashayotganlarida quchoqlashib, o‘pishib ko‘rishsa, erkaklar qo‘l berib yoki og‘zaki “Assalomu alaykum” deb salom berishni afzal ko‘radilar. Tadqiqot yana bir bor ayollar erkaklarga qaraganda suhbatda ko‘proq jismoniy teginib suhbatlashishlari isbotladi. Jestlardan ham erkaklarga qaraganda ayollar faol foydalanishlarini kuzatdik. Shuningdek, suhbat jarayonida erkak suhbatdosh ko‘proq bosh siltab, tasdiqlab turishladilar. Ko‘plab ishtirokchilar ko‘z ishorasi muloqotda muhim ekanligini ta’kidladilar va erkalar ham, ayollar ham birdek gapirayotganlarida ko‘z ishorasi katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tishdi.

Erkaklar shaxsiy masofada turib gaplashishni afzal ko‘rsalar, ayollar ijtimoiy masofani tanladilar. Aksariyat ishtirokchilar qarshi jins yonida o‘tirishni inkor etdilar va noqulaylik tug‘dirishini sabab qilib ko‘rsatdilar. Bu tadqiqotimiz

ham ayollar noverbal ishoralardan foydalanishda erkaklarga qaraganda ko‘proq faol ekanligini ko‘rsatdi (Qarang Ilova 2,1,2-rasmlar).

Tadqiqotimizda noverbal kommunikativ kompetentlikni shaxsning shaxsiy xususiyatlari, qolaversa, o‘zaro faoliyatining real vaziyatlarida muloqot tajribasi ta’siri ostida rivojlanish natijasi sifatida qaraldi va inson shaxsi sohasining ustuvorligini rivojlantirish, subyektiv tajribalari masalalari bilan ham bog‘ladik. Demak, noverbal kommunikativ kompetentlik strukturasi amaliy blokka – ijtimoiy-psixologik, mantiqiy-kompozitsion va, albatta, nutqiy kommunikativ malakalarni o‘z ichiga oladi.

Bizning zamonaviy dunyomizda jonli suhbat qurishga vaqtimiz yo‘qligi tufayli biz, asosan, yozishib, ovozi xabarlar va e-maillor orqali bog‘lanamiz noverbal muloqotning samarasidan bexabar holda. Ammo, avvalo, noverbal ishoralar bizning emotsiyamizni to‘liq ochib berishini anglashimiz muloqotimiz samarasi uchun juda muhim.

## XULOSA

Noverbal muloqotning gender nuqtayi nazardan tahlili tadqiqotimizda quyidagi xulosa va natijalarni ko‘rsatdi:

1. Genderning **ontologik** tabiati murakkab xarakterga ega. Gender tilshunoslik ontologiyasi turli fanlardan olingan ma’lumotlardan tashkil topgan bir nechta soha: madaniyatshunoslik, sotsiologiya, tilshunoslik, pragmatika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi metodologik **paradigmalardan** iborat. Demak, gender bu – nafaqat ijtimoiy-madaniy qurilish, balki bir nechta xususiyatlarni o‘z ichiga oladigan sotsio-madaniy qurilish ekanligi isbotlangan: a) ijtimoiy jamiyatda institutsionalizatsiya shakllanish jarayonida; b) amalga oshirish jarayonida madaniy namoyishlar; v) sotsiolingvistik; (ijtimoiy roli, ijtimoiy maqom); g) pragmatik; (sotsiopolisning nutq xatti-harakati) d) lingvistik (lingvistik toifalar yordamida xulq-atvorning gender stereotiplarini rasmiylashtirish). Shu munosabat bilan, genderni ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganadigan gender sotsiolingvistika qoidasi ilgari surildi.

2. Gender sotsiolingvistikasining **gnoseologiyasi** turli xil nazariyalarni qo‘llash orqali genderni o‘rganish usullarini ochib berdi, bu esa jamiyatda gender ijtimoiy tuzilmalar va tillar o‘rtasidagi munosabatlarni (ijtimoiy, etnosotsial, jins va yoshdagi tabaqalanishning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy pozitsiyasi) ochishga imkon berdi.

3. Imo-ishorali muloqotni gender nuqtayi nazardan tahlil qilishda imo-ishoralar tipologiyasi gender parametrlarini o‘z ichiga olishi mumkinligi aniqlandi, shuning uchun bizning tasnifimiz quyidagicha: a) parametr: an’anaviy-noan’anaviy belgilar (ko‘rsatma), noan’anaviy (tartibga soluvchi, ko‘rsatuvchi, ta’kidlovchi, ritmik); b) parametr: semantik xususiyat (tavsiflovchi, ramziy, ifodali); v) parametr: muayyan funksiyalarni bajarish (ijtimoiy belgili, fatik, hissiy, ekspressiv, kommunikativ); g) parametr: tuzilish (oddiy, murakkab) d) madaniy belgilar (etnik xarakterni aks ettiruvchi imo-ishoralar, milliy belgi, etnik me’yorlarni aks ettiruvchi imo-ishoralar); e) parametr: gender (erkak va ayol jestlari);

4. Mimika – his-tuyg‘ularni namoyon etishda eng samarali yo‘l. Tipik o‘zbek va ingliz ayollarning jestlari: *qoshini ko‘tarish, qoshini kerish, qoshini*

*ko'tarish, labini burish. Erkaklarda: qovog'ini uyish, qovog'idan qor yog'ish.* Ikki millat mimik ishoralari orasida tahlil jarayonida katta tafovut aniqlanmadi.

5. Erkak va ayollardagi nigohining (**okulesika**) o'ziga xosliklari tahlil etildi. **O'zbek ayollarning nigohi:** yashirincha, kiprik qoqib, pinhona qarash. **Ingliz ayollar:** situativ uyatchan, katta-katta ochib, muloqotchiga dadil qarash. Erkaklar: (ikki madaniyatida tafovutsiz) o'tkir, o'ziga ishongan, shavqatsiz, dadil, ziyrak, sirli, maxfiy, sovuq, to'g'ri, hukmron.

6. O'zbek va ingliz jamiyatidagi erkak hamda ayol pozitsiyasi xarakterlidir. Ma'lumki, erkakning pozasi ochiq, yopiq, orqaga egilgan, erkin, bo'shshagan bo'lishi mumkin, bunda oyoq va qo'llarning harakati katta **amplitudaga** ega, aristokrat pozasi, tahdid yoki tajovuzkor poza. Ayollarning pozasi esa unchalik ochiq va erkin bo'lmaydi, ular, odatda, o'zlarini qattiq nazoratda ushlab turishadi. Tanalarining yo'nalishi **simmetrikdir**.

7. **Proksemika:** individual masofa saqlash yoki ajratish madaniy vositaga, insonning yoshiga, jinsiga, muloqotchining ijtimoiy maqomiga bog'liq. **O'zbek muloqotchilarning** orasidagi masofa ularning jinsiga ham bog'liq:

A) ayollar o'rtasidagi masofa erkaklarnikiga qaraganda kamroq bo'ladi;

B) ayol juftliklar orasidagi masofa ularning yoshiga qarab ortib, ya'ni kengayib borsa, erkaklarniki kamayib boradi;

V) O'zbek madaniyatda suhbatdoshlarning joylashgan o'rni, masofasi ularning ijtimoiy maqomi, yoshi va jinsiga qarab madaniy ma'no anglatadi. Hozirgi zamonda ayollarning ham maqomi baland bo'lib, o'tirganlarida kursida erkin, o'zlarini orqaga tashlab, oyoq chalkashtirib o'tirishlari mumkin. **Ingliz madaniyatida** esa oila iyerarxiyasi ahamiyatsiz. Ularda o'zbek madaniyatidan farqli intim aloqa va juftliklar orasidagi masofa juda yaqin hamda ochiq. Ijtimoiy masofa esa muloqotchining yoshi, jinsi va ijtimoiy mavqeidan kelib chiqib farqlanadi. Erkin holatdagi shaxsiy makon qarama-qarshi jinslar o'rtasida yaqin va ochiq.

8. Noverbal muloqotning psixolingvistik tadqiqotlari, jestlarning expressiv va emotsional jihatlari shuni ko'rsatadiki, tillar va noverbal muloqot ularda so'zlashadigan xalqlar madaniyati kontekstida o'rganilishi kerak. Madaniyatlararo muloqot milliy xarakter, hissiy tizimlar va milliy mentalitetning xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

9. O'zbek millatida taktil aloqani cheklovchi asosiy omil – din va mintalitet hisoblanadi. Jismoniy teginib muloqotga kirishish inglizlarda har ikki jins tarafidan faol va ochiq ishlatiladi. Inglizlarda ikki jins orasidagi taktil aloqa o'zbeklardan mutlaqo farq qiladi. Samimiy, do'stona va intim munosabatni ifodalaydi. Taktil xulq-atvor insonning yoshi va ijtimoiy maqomiga ham bog'liq ekanligi tadqiq etildi.

10. Tadqiqotimizda noverbal kommunikativ kompetentlikni shaxsning shaxsiy xususiyatlari, qolaversa, o'zaro faoliyatining real vaziyatlarida muloqot tajribasi ta'siri ostida rivojlanish natijasi sifatida qaraldi va inson shaxsi sohasining ustuvorligini rivojlantirish, subyektiv tajribalari masalalari bilan ham bog'ladik. Demak, noverbal kommunikativ kompetentlilik strukturasiidagi amaliy blokka – ijtimoiy-psixologik, mantiqiy-kompozitsion va, albatta, nutqiy kommunikativ malakalarni o'z ichiga oladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019 Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ  
МИРЗО УЛУГБЕКА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**РАХМАТУЛЛАЕВА УМИДА ХОМИДОВНА**

**ГЕНДЕРНЫЙ АНАЛИЗ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ КОММУНИКАЦИИ (НА  
ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии(PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент-2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при за № В2024.2. PhD/Fil4687**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, английском, русском (резюме) разрешён на веб-странице Научного совета ([w.w.w.nuu.uz](http://w.w.w.nuu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Маматов Абди Эшонкулович**  
Доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Садуллаева Нилуфар Агзамовна**  
Доктор филологических наук, профессор

**Абдуазизова Дурдона Абдузухуровна**  
Доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится “5” декабря 2025 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019. Fil.01.10 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, дом 400. Тел: (+99871) 246-08-62; Факс: (+99871) 246-65-24; e-mail: [paika@nuu.uz](mailto:paika@nuu.uz). Национальный университет Узбекистана, факультет зарубежной филологии, 3-этаж, 3-11 аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №203). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университет, д. 4. Тел : (+99871) 227-12-24).

Автореферат диссертации разослан «21» ноября 2025 года.  
(протокол реестра рассылки № 40 от 21 ноября 2025 года.

**И.А.Сиддикова**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, докт. филол. наук, профессор

**М.Г.Рабиева**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учуных степеней, доктор философии по филол. наукам (PhD), доцент

**С.Э.Камилова**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В мировом языкознании быстро развивается новое направление - гендерная лингвистика, изучающая проблемы гендерных взаимоотношений, отношения общества к мужскому и женскому социальному полу, а также социальные гендерные характеристики, отражающиеся в речевом поведении мужчин и женщин. Гендер проявляется в трех аспектах: социальные признаки, культурные образы мужественности и женственности как традиционные формы ритуализации мужского и женского поведения, речевое поведение, гендерные аспекты и средства коммуникации, предпочитаемые тем или иным полом, проявляющиеся в их социально-дифференцированном использовании. Необходимость анализа невербального общения в гендерном аспекте на примере узбекского и английского языков определяет актуальность данного диссертационного исследования, поскольку невербальные средства коммуникации в гендерном аспекте редко изучаются учеными, методология изучения невербальных проявлений гендера не разработана, не создана теоретическая модель невербального поведения мужчин и женщин, говорящих на узбекском языке.

В мировом языкознании, особенно в узбекском языкознании, сопоставительное изучение языков имеет большое значение. Несмотря на то, что в Узбекистане проводятся успешные исследования по сравнительному изучению языков, следует отметить, что существуют проблемы, которые требуют последовательных исследований в сравнительном изучении лексики, включая изучение невербальных средств, то есть паралингвистических инструментов. Сравнительное исследование невербального слоя языков разных систем очень сложно и актуально.

В нашей стране осуществляются коренные изменения в сфере образования и науки, в том числе и в языкознании. «Сейчас в нашей стране происходит еще один важный процесс пробуждения. Именно поэтому мы отдаем приоритетное значение созданию всех условий для того, чтобы представители молодого поколения получали знания, раскрывали свои таланты и потенциал в области науки, инноваций, литературы, искусства и спорта, а также активно участвовали в общественно-политической жизни общества<sup>38</sup>».

В частности, работа соответствует основным положениям и целям, определенным в следующих документах: Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в котором особое внимание уделено модернизации научно-образовательной сферы, укреплению интеллектуального потенциала нации и повышению роли гуманитарных наук, в том числе лингвистики, в процессе формирования национальной идентичности; Указ Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019

---

<sup>38</sup> Строительство нового Узбекистана – объективная необходимость // Президент Республики Узбекистан Интервью Ш.М.Мирзиёева газете “Янги Узбекистан”, 2021. — 17 avgust. — №165 (421).

года №ПФ-5712 “Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистон до 2030 года”, предусматривающий совершенствование методологии преподавания и внедрение инновационных подходов в изучении иностранных языков и гуманитарных дисциплин; Указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года №ПФ-6108 “О мерах по развитию сфер образования и науки в новом периоде развития Узбекистана”, в котором обозначены приоритетные направления интеграции науки, образования и инноваций, а также необходимость усиления исследовательского компонента в гуманитарных науках; Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года №ПК – 3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в масштабных реформах, проводимых в стране”; Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года №610 “О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях”.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики И. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности темы.** Сформированная в нескольких дисциплинах гендерная лингвистика уделяет отдельное внимание изучению социальных и культурных особенностей речевого поведения мужчин и женщин. Работы Л.С. Выготского, С.Л. Рубинштейна, Д. Мида, Т. Шибутана и др. считаются теоретической и методологической основой гендерных исследований. Гендерный аспект невербального общения включает в себя следующие правила: 1) место символического интеракционизма о социальном статусе невербальных общений; 2) состояние символического фундаментализма, понимающего реальность, в том числе гендерную, должно выражаться косвенно через язык; 3) основан на методологическом принципе психологии выразительного поведения о социальной направленности экспрессивных действий, осуществляющих коммуникативную задачу.

Гендерная характеристика невербальных средств общения изучали такие исследователи, как М.М.Муқанов<sup>39</sup>, С.С.Татубаев<sup>40</sup>, С.Б.Бейсембаева<sup>41</sup>, Л.А.Капанадзе<sup>42</sup>, Г.В.Колшанский<sup>43</sup>, А.Пиз<sup>44</sup>, Э.И.Горошко<sup>45</sup>, Г.Е.Крейдлин<sup>46</sup>,

---

<sup>39</sup> Муқанов М.М. Этнопсихологическая специфика невербальных коммуникативных знаков // Психология. Вып. 2, Интеллект и речь. – Алма-Ата, 1972.

<sup>40</sup> Татубаев С.С. Жесты как компонент искусства. – Алма-ата: Казахстан, 1979.

<sup>41</sup> Бейсембаева С.Б. Невербальные компоненты коммуникации в казахском языке: Автореф. дисс....канд. филол. наук. – Алматы, 2002.

<sup>42</sup> Капанадзе Л.А., Красильникова Е.В. Роль жеста в разговорной речи // Русская разговорная речь. – Саратов: СГПИ, 1970.

<sup>43</sup> Колшанский Г.В. Функции паралингвистических средств в языковой коммуникации // Вопросы языкознания – М., 1973.

<sup>44</sup> Пиз А. Язык телодвижений. – М.: ЭКСМО, 2002.

